



yuksaltirish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish doirasida e'tibor qaratilib, oilani rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish, oila ajralishlari bilan bog'liq salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini bartaraf etish, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oila farovonligi darajasini oshirish, oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Mazkur chora-tadbirlar ona shaxsining farzandlar kamolotiga ta'siri, ularning turli oila turlari va shakllaridan qat'i nazar, barqaror tarbiya muhitini ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni turmushida tatbiq qilish vazifasini yuklamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida oila xususida to'xtalib, “Turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlari ham, afsuski uchrab turibdi. Natijada yosh oilalar orasida arziyas sabablar bilan ajrashishlar ko'payib bormoqda. Begunoh bolalar yetim bo'lib, mehr va e'tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolmoqda”, “Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, axillik va o'zaro hurmat muxitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur”, buning uchun esa yoshlar o'rtasida bolalikdan ko'proq ish olib borilishi shart. Negaki, aksariyat hollarda, yoshlar o'rtasida ma'rifat va e'tiqodsizlik kuchsizlangan joylarda turli xil ko'ngilsiz voqea – hodisalar ro'y beradi, yoshlar ongiga Vatan tuyg'usi, milliy g'urur, milliy g'oya kabi tushunchalarni singdira olmas ekanmiz, ularning shuuridagi erkin tarqqiyot hissini uyg'ota olishimiz ancha murakkab kechadi. Maqsad esa bugun va ertangi kun ma'naviyatining asl mohiyati kishilarimiz, ayniqsa yoshlarimiz ongida o'zining ijobiy ifodasini topsin”1-deb ta'kidlaydilar.

Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahallalari mustahkam bo'lgan davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Shu boisdan har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning oilalar mustahkamligining o'zni beqiyosdir. Chunki, har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning xukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotida oilaning tutgan o'zni beqiyosligi mazkur tadqiqotimizning o'ta muhimligi va dolzarbligidan dalolat beradi.

Yoshlarni oila va nikoh haqidagi tasavvurlarida ota va onaning ta'siri qay darajada ekanligini o'rganish maqsadida respondentlarga berilgan “Ota-onangiz sizga nikoh oila haqida maslahat beradimi?” degan savol natijalariga ko'ra, 24-26 yoshdagi sinaluvchilarni oilaga ma'naviy tayyorgarlik borasida garchi ular ma'lum kasb-hunar egasi bo'lsalar-da, kattalarning maslahatlariga ehtiyojlarining boshqa yosh davrdan ko'ra yuqoriligi aniqlandi.





Natijalarni tahlil qilish orqali haqiqatan ham oila qadriyati – bu, biz yashab turgan jamiyatning eng muhim ma’naviy va ijtimoiy asoslaridan biri bo‘lib, u oila a’zolarimiz o‘rtasidagi munosabatlar, axloqiy meyorlar, urf-odatlar, shuningdek, qadriyatlar majmuasini anglatishini guvohi bo‘ldik. Tajriba ortib borishi qadriyatlar mohiyatini anglab borishga sabab bo‘lishligi har ikkala respondentlar (nikoh ostonasida turgan yoshlar va turmush tajribassiga ega bo‘lgan oilalilar) natijalarida namoyon bo‘ldi. Oila qadriyati an’anaviymi yoki zamonaviymi, uning zamirida ota-onaga, kattalarga hurmat, oila a’zolari o‘rtasidagi muhabbat va g‘amxo‘rlik, bir-biriga ishonish va vafodor bo‘lish, har bir a’zo o‘z vazifasini anglab bajarishi, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va birlikda yashash kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ota-onalardagi ustivor kognitiv ustanovkalar shaxsning tarbiyasi va kamolotiga asos bo‘lishi va jamiyat barqarorligini ta’minlashi, shuningdek, oilada milliy an’analar va urf-odatlarning saqlanishi yosh avlodni to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam berishini natijalar asosida aniqlandi. Oila qadriyatlari insonning ma’naviy dunyosi shakllanishida eng muhim omil ekanligi va mustahkam oila – bu, mustahkam jamiyat ekanligi demakdir.

Nikoh – bu, avvalo, ikki insonning shaxsiy hayoti, shunga binoan juftliklar o‘rtasida o‘zaro hurmat, muhabbat, psixologik moslik eng kerakli omildir. Ma’naviy tayyorgarligi oila ilmini o‘zlashtirganligi oiladagi qadriyatlar asosida ota-ona tomonidan o‘rgatiladi. Juft tanlashda yoshlarning o‘z tanlovi bo‘lishi yaxshi, albatta, ammo ota-onadan mas’uliyatli bo‘lish talab qilinadi. Demak, ota-ona maslahati bilan yoshlarga to‘g‘ri qaror qabul qilishda yordam berishi kerak.

Biz yashayotgan o‘zbek oilalarida mavjud muammolar yechimiga, davlat va jamiyat taraqqiyoti barqarorligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatiga ijobiy ta’sir etishini hisobga olgan holda uning tarixiy taraqqiyoti, nazariy asoslari va muammolari yechimi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni ko‘rsatib berishimiz mumkin:

Yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlashda biologik, ma’naviy, psixologik, iqtisodiy va huquqiy ijtimoiy munosabatlar birligi muhim mezon ekanligini hisobga olib, oila-nikoh muqaddasligiga, oilaparvarlikka yo‘naltirishda muhim vosita sifatida qarashlarni shakllantirish va rivojlantirish avvalo ota-onaning vazifasi ekanligini anglab yetdik. Shuningdek oilada mehr va muhabbatli bo‘lish, juftiga erkin yashash imkonini berish. Hayotda shunday holatlar bo‘ladiki, er-xotin munosabatlarida e’tibor, g‘amxo‘rlik va xushmuomalalik sevgi, muhabbatga nisbatan ham o‘z ustunligini ko‘proq ko‘rsatadi. Ayrim xollarda oilalar sevgi-muhabbat emas, balki sovchilik yoki boshqa sabablarga ko‘ra tashkil topgan bo‘lsa, birgalikdagi oilaviy hayot va ayniqsa, er-xotinning bir-biriga ko‘rsatadigan e’tibori oilaviy baxtni chinakam his etishga asos bo‘ladigan vaziyatlarda yoshlar albatta ota-onasining turmush tarzidan o‘rnak olishi tabiiy tarzda ro‘y beradi.

Jamiyatimizda yuksak ma’naviy muhitni keng qaror toptirish, o‘zbek oilasiga xos odob-axloq, milliy mentaletimizga mutloq yot bo‘lgan turli xil zararli ta’sirlarga qarshi turishda oilaning rolini kuchaytirish, oilaning ma’naviy-huquqiy muammolari, tibbiy savodxonligi va madaniyati, barqaror turmush tarzi, reproduktiv salomatlikka





qaratilgan motivlarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashda xam oila ustuni va vazirining roli katta.

Ma'naviy yetuk, jismoniy sog'lom va har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish, shu maqsadda oila institutining ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ta'lim muassasalarida “Oila psixologiyasi” kursini o'qitish orqali yoshlarni oilaviy ta'lim faoliyatiga yo'naltirish, ular yordamida jamiyatimizdagi oila barqarorligiga salbiy ta'sir etuvchi holatlarning oldini olishda albatta qo'l keladi.

Demak, oilaga nisbatan muxabbat, qadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish, shaxslararo munosabatlarda ideallikka erishish va shaxsiy o'z menini real baholash va oilaparvarligiga qaratilgan sifatlarning negizi ota-onaning turmush tarzi orqali bola xayotida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: “O'zbekiston”, 2017, 43-bet.

2. Abdullayeva A.R. Yoshlarning oilaga ma'naviy tayyorligini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish natijalari. // Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi. – Buxoro, 2024. – №1 (5). B. 149-153. ISSN 3030-3710 (P), ISSN 3030-3095 (E). (19.00.00. №1).

3. Abdullayeva A.R. Nikoh yoshi oila mustahkamligini ta'minlashining ijtimoiy psixologik omili sifatida. // Ta'limda istiqbolli izlanishlar. – № 2. 2025-yil. 33-bet

4. Abdullayeva A.R. Sotsialno-psixologicheskiye osobennosti brachnogo vozrasta dlya obespecheniya stabilnosti semeynix otnosheniy. // Вестник интегративной психологии. Ярославль. ЭМАЙЛ: козлов@зи.козлов.ру ИСБН 978

5 9527-02-16-5 .Выпуск 34, част 2, 2024. С. 4-8.
https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

